№ 2/2024

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MUNDARIJA

IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Ergasheva M.G‘. O‘zbekiston xotin-qizlar bo‘limlarining tashkil etilish tarixi va ularning ilk sovet davridagi faoliyat natijalari 4

Yusupova S.N., Oripova.Sh.Q. Andijon viloyatida kam sonli millatlar nufuzining ortishi 7

Toshpo‘latov Y. Korrupsiyaga qarshi kurashda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning ahamiyati 12

Abduraxmonov Sh.K. Aksiologik yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta’lim kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish tizimli-funksional modeli 15

Turg‘unboyeva D. O‘zbekistonda aholi va xalqaro mehnat migratsiyasi 20

ANIQ VA TABIY FANLAR

Sirojidinov B.A. Eksperimental poliploidiya uslubining ilmiy-tadqiqotlarda ahamiyati 24

Muxtarova L.A. Ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo abscissial va ordinatal aloqadorlikda o‘rganish omillari 27

Ахмедов Ш.Б. Обучение некоторых элементарных функций и их применения в экономике для студентов экономических направлений с использованием интеграционного метода 34

Maxsudov O.X. Matematikaning integral hisob usullarini tibbiyot sohasida qo‘llanilishi 41

Sadikova A. Sog‘lom turmush tarzining genetik omillari va ijtimoiy ahamiyati 44

Xudoyberdiyeva Sh.M. Aqliy operatsiyalarni matematik masalalar orqali shakllantirish 49

Muxsinboyev O.M., Abdurahmonova M.J. Biologiyani o‘qitishda fanlararo bog‘lanish hamda interfaol usullardan foydalanish metodlari 54

6. Babajanova D. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni saqlashga doir davlat siyosati/ “O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar: zamonaviy yondashuvlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent, 2024. – B.113.

UO‘K: 376.6

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING AHAMIYATI

https://zenodo.org/records/12191939

Toshpo‘latov Yoqubjon
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqolada korrupsiya, korrupsion holatlarning salbiy oqibatlari, korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalari (OAV), adabiyot, san’at turlarining o‘rni, salbiy illatga qarshi kurashishda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, ta’lim muassasalarida, yoshlar o‘rtasida poraxo‘rlikka qarshi kurashni keng targ‘ib qilishning zaruriyati haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya, poraxo‘rlik, ta’magirlik, korrupsion holat, ommaviy axborot vositalari, huquqiy madaniyat.*

Аннотация. *В статье говорится о коррупции, негативных последствиях коррупционных ситуаций, роли средств массовой информации (СМИ), литературы, искусства в борьбе с коррупцией, необходимости повышения правовой культуры населения в борьбе с негативным злом, особенно в образовательных учреждениях, а также необходимость широкой пропаганды борьбы со взяточничеством среди молодежи.*

Ключевые слова: *коррупция, взяточничество, вымогательство, коррупционная ситуация, средства массовой информации, правовая культура.*

Abstract. *The article discusseda about corruption, the negative consequences of corruptional situations, the role of the media, literature, art on the contrary to corruption, the need to improve the legal culture of the population on the contrary to corruption, especially in educational institutions, as well as the need for widespread propaganda on the contrary to bribery among young people.*

Key words: *corruption, bribery, theft, corruption situations, media, legal culture.*

Hozirgi kunlarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi ta’sirchan – global tarzda siyosiy kurash olib borilayotganligi kishini quvontiradi. Umuman olganda esa shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyodagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish global tarzdagi zaruriy masala bo‘lib turibdi. Biroq, korrupsiya dunyo miqyosida tobora chuqurlashib yangitdan-yangi ko‘rinishlarda ildiz otmoqda. Vaholanki, ana shu yo‘nalishda juda chigal muammoni hal etmasdan, uni tagtomiri bilan yo‘qotmasdan turib, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi.

Gohida o‘z xarakteriga ko‘ra korrupsiyaning fojeali xususiyatlarning og‘ir oqibatlarga olib kelganligini hayot kuzatishlari isbotlab berdi. U qanday ko‘rinishda bo‘lmasin nihoyatda ijtimoiy adolatsizlikka yo‘l ochadi, demokratik va umuminsoniy qadiriyatlarni yemirilishiga zamin yaratadi. Korrupsiya o‘z mazmuni jihatidan tamagirlik, shuningdek poraxo‘rlik, firibgarlik, ichkilikbozlik, ko‘zboyamachilik kabi salbiy illatlarda o‘z aksini ko‘rsatadi. U taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi xavfli jinoyat, bu illatga qarshi kurash huquq tartibot organlarining ishigina emas, mamlakatimizda yashovchi barcha fuqarolarni bu masalada faol bo‘lishlikka e’tiborini qaratishni taqozo etadi. Bu murrakab masalani hal qilish ehtiyoji qator xalqaro tashkilotlar ko‘magi, sa’y-harakatilari natijasida ta’sirchan siyosiy tarbiyaviy ishlar olib borishga da’vat etadi. Korrupsiyasiz hayotga xalqaro kelishuvlardagi masalalarni keng jamoatchilikka yetkazish, birgalikda unga qarshi kurash chorasini belgilab, odamlarni undan ogoh bo‘lishga e’tiborini qaratish orqali erishiladi.

Butun bir davlat tuzulmasining asosini buzayotgan korrupsiya balosi davlat uchun, xalq uchun zararli bir holatdir. Shuni ta'kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish ko'pchilik mamlakalarda fuqarolar xavfsizligiga rahna soluvchi uyushgan jinoyachilik, terrorizm va boshqa tahdidlarga qarshi kurash kabi qat'iy kurash olib borishni taqazo etmoqda. Dunyo miqyosida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha keyingi yillarda davlat siyosatining ustuvar yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib uni mavjud qonunlar doirasida sinchiqovlik bilan ish olib borish uslubini belgilanmoqda. Korrupsion holatga qarshi zaruray normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinib, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan, o'z davri mavqeidan kelib chiqib, isloholar amalga oshirilib, uni mufassal o'rganishga kirishildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalar(OAV)ga alhida e'tibor qaratish zarur. Keyingi yillarda radio eshitirishlar, televideniye ko'rsativlarida hamda teatr tamoshalarda korrupsiyaning keltirayogan zararli tomonlari ko'plab hayotiy faktlar, hamda materiallar jamlanib, orqali tanqidiy fikrlar aytilib keng xalq ommasiga korrupsiyaning zararni oqibatlari tushuntirilib borilmokda.

OAV ma'lumotlariga asosan aytishimiz mumkinki, korrupsiya jamiyatimiz uchun iqisodiy jihatdan ham juda katta zarar kelirmokda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida ta'kidlanganidek: "Tahlillarga ko'ra, hozirda korrupsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion AQSh dollariga yakin miqdorni tashkil qilmoqda. Ammo, men bu katta raqamlar haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko'rilayotgan real zararning aniq xajmini to'liq ifoda eta olmaydi, deb hisoblayman. Eng yomoni – jamiyat ko'radigan ma'naviy zarar ko'llamini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi" [1].

2017-yilning 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida korrupsiyaga qarshi muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkiliy – huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va olib borilayotgan ishlar samaradorligini ko'tarish bo'yicha aniq vazifalar belgilab beriligan [2].

"Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunidagi barcha holatlarda jamiyatimiz taraqqiyotiga g'ov bo'lib turgan bu muammollarni "Ko'z bilan ko'r, dil bilan qil"- degan tushunchasi asosida amalga oshirilishida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha orqaga qaytmas yo'ldan yurishga qat'iy intilamiz. Inson faoliyatining qaysi bir sohasiga olib qaramagan, odam to'g'rilikka asoslanmasa, ish buziladi, izdan chiqadi. "Kuch – adolatda" degan mashhur hikmatning ma'nosi ham to'g'rilikka undaydi.

Har qanday qonun jamiyatning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishi bo'lib, o'zaro aloqalar va munosabatlarning namoyon bo'lishidir. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ijrosini ta'minlash borasida O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgan va keng ko'lamli faoliyati yo'lga qo'yildi. Agentlik tomonidan korrupsiyaga shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas balki ma'naviyatni buzilishi sifatida kurash olib boriladi. Ana shundan kelib chiqib, korrupsiyaga aloqador fuqaro qonunni buzishdan tashqari o'zining insoniyligi, e'tiqodi, ma'naviyatini salbiy darajada ekanligini oshkor qiladi. Bunday insonlar na fakat moliyaviy ziyon yetkazibgina qolmay, jamiyatdagi o'z faoliyatiga nisbatan obro'-e'tiborini ham yo'qotadi.

Yuqoradagi kabi, salbiy illatlarga qarshi kurashishda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, tamagirlikki nisbatan murosasiz munosobatda bo'lish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ayniqsa, ta'lim muassasalarida, yoshlar o'rtasida poraxo'rlikka qarshi kurashni keng targ'ib qilish bugunning muhim

vazifalaridandir. Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori tashkilotlar rahbarlari o‘z o‘rnida amaliy, kekin chora ko‘rishlarni ko‘rishi zarur. Aks holda tanqid hamda oshkoralikdan hech qanday natija chiqmaydi. Qolaversa, har birimiz korrupsiyaga qarshi kurashda murakkab va chigal muammolarni hal qilishda, ayniqsa, uzoq yillar mobaynida yuz bergan korrupsiyadek zararli illatga barham berishni tadqiqotchisi bo‘lishimiz lozim. Qadimdan xalqimizning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy fikrlarini muhim tamonlarini o‘zida ifodalagan, asosiy yozma yodgorligi hisoblangan “Avesto” kitobida: “Ezgu o‘y, ezgu so‘z va savob ishni alqayman. O‘zimni bari ezgu o‘ylarga, ezgu so‘zlar (aytish)ga, yaxshilik ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon o‘ylarni, yomon so‘zu yomon ishlardan yuz o‘giraman”, - degan hayotiy fikrlar yozilgan bo‘lib, har birimiz anashu fikr aosida ish tutmog‘imiz zarur [3].

Mamlakatimizda yashayotgan har bir inson yomon ishlardan yuz o‘girtirish, atrofidagilarni ezgulikka undash lozim. Dunyo tajribasiga asosan, iqtisodni rivojlantirish uchun ichkilikbozlik, maishatbozlik, buzg‘unchilik kabi illatlar bilan birga poraxo‘rlik, ko‘zbo‘yamachiliklarga barham berish, kishilarning sog‘lig‘ini, atrof-muhit sofligini saqlashga o‘rgatish dolzarb masala bo‘lib turibdi degan tushuncha paydo bo‘ldi. Taniqli qirg‘iz yozuvchi Chingiz Aytmatov: “Olimni biz o‘zgartiramiz, olam bizni o‘zgartiradi”, - deb, yozgan edi [4]. Shu fikrdan qaralganda hayot jamiyat o‘zgarib, taraqqiy etib borayapti. Ammo, ayrim odamlarning jamiyatimizga bo‘lgan qarashlari, xulq-atvori salbiy tomonga moyilligi sezilib turadi. Bularga nisbatan siyosiy-ijtimoiy, tarbiyaviy ta’sirchanlikni oshirishga to‘g‘ri keladi. Chunki, hayotimizda yuz berayotgan korrupsiyadek salbiy holatlar ma’nan shuni taqoza etmoqda. Jamiyatda hech bir mehnat qilmay, boylik orttirishga intiluvchi insonlar uchraydi. Ular o‘z manfaati yo‘lida boshqalar mehnatidan foydalanishga, boylik va shon-shuhratga ega bo‘lishga intiladilar. Bu esa o‘z-o‘zidan zararli illat - korrupsiyani keltirib chiqarmoqda. Buning natijasida ekin maydonlarini sotish, suv, gaz hamda elektr tarmoqlardan yashirish yo‘l bilan noqonuniy ulab olish va buning natijasida davlatga million-million so‘mlab zarar keltirish holatlari yuzaga kelmoqda. Bunday kimsalarga qarshi kurashda adabiyot, san’at turlaridan ham foydalanishimiz zarur. Tarbiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yumor, masal, hikoya kabi kichik xajmdagi asarlar jamiyatimizdagi o‘z mansabini suiiste’imol qiluvchi, oshna-og‘aynigarchilik, poraxo‘rlik, aldoqchilik, yolgonchilik, firibgarlik kabi salbiy illatlarga berilgan kishilarni tanqid qilish imkonini beradi.

Xalqimizning boy og‘zaki ijodidagi hikoyatlar ham yoshlarni ma’naviy kamolatida alohida ahamiyatga ega. Ma’naviy kamolotga erishgan inson eng jirkanch illatlardan biri bo‘lgan poraxo‘rlik, ta’magirlik – korrupsiyaga qarshi kurashda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi, jamiyat tarqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston 2030-yilgacha korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasini ishlab chiqadi. 2023-yil 19-dekabr. https://sputniknews.uz/20231219/ozbekiston-2030-yil-korruptsiya-qarshi-kurashish-milliy-strategiya-41635645.html
2. “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida” O‘RQ-149-son. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2017-yil 3-yanvar. https://lex.uz/docs/3088008
3. Ishoqov M. Avesto. Toshkent: Sharq. 2001. 34-b.
4. Айтматов Ч. Первый учител. 1962.